



**ISAJON SULTON HIKOYALARINING BADIYATI**

**Panjiyeva Zarinabonu Husniddin qizi**

Termiz Davlat Universiteti o'zbek filologiyasi 2-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7162075>

Kalit so'zlar: qo'shiq, folklor, "Devonu lugo'tit turk", alla, shaxs, Tavrot, Injil, Qur'on, Bog'i Eram.

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi adabiy jarayonda xalq og'zaki ijodi janrlarining ta'siri, xususan, Isajon Sulton hikoyalarida qo'llangan xalq og'zaki ijodining o'lmas qahramonlari, qo'shiq va maqollarning o'rni ilmiy nazariy adabiyotlar asosida tadqiq qilingan.

Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab, to hayotining so'nggi lahzasigacha o'zi mansub bo'lgan xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutlaqo yiroq bo'lgan kishi shu qadim an'analari ta'sirida shakllangan bo'ladi.

Xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lmish xalq og'zaki ijodi janrlari va uning o'lmas qahramonlari, badiiy ijodkorlik tajribasi yozma adabiyotning vujudga kelishi va taraqqiy etishi uchun asosiy ma'naviy-badiiy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodidan bahramand bo'lmagan, uning ma'naviy boyligidan oziqlanmagan bironta so'z san'atkori topilmasa kerak.

Xuddi shunday Isajon Sulton hikoyalarini o'qir ekanmiz uning xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanganligini ko'ramiz. Jumladan yozuvchining "Yusuf va Zulayho" hikoyasining sarlavhasiy oq yozuvchining xalq ijodi, uning o'lmas qahramonlari, ular taqdiri bilan bog'liq yangicha talqin ko'zga tashlanadi.

"Yusuf va Zulayho" dostoni turli manbalarda turlicha syujetga ega. Isajon Sulton ming yillik tarixga ega ushbu qahramonlar taqdirini badiiy adabiyotga olib kirar ekan, ularni ishq-muhabbat o'zaniga qo'yib beradi. Asarda Yusuf bolaligida ko'p shafqatsizliklarga duch kelgan, otasi barvaqt o'tib ketib, hayotda bir ona-yu bir aka bilan qolgan bo'lib juda qashshoq yashardi. Uni Zulayho odam qildi. Zulayho avvalgi turmushidan nimadir sabab bo'lib ajrashgan, kichkina jamalaksoch qizalog'i bor ko'hlik juvon edi. Odamlar:

-Yusuf Zulayhoni telbalarcha sevarmish.

-Juvonni-ya?

-Juvon bo'lsa nima qipti?





Tarixda bir Yusuf degan kishi yashagan, Zulayho degan bevaga uylangan. Insonlarning taqdirini o'yin qiladigan, ulfatchilikda bo'lar bo'lmas gaplarni bir-biriga ma'qullatib shundan lazzatlanadigan choyxona bu ishq-muhabbat ila bir-biriga talpingan ko'ngillar o'rtasiga sovuqchilik tushuradi. Oxir-oqibat muhabbatga, ishonchga darz ketadi, Yusuf pok Zulayhosidan ajrashadi.

Inson biror g'am-anduhga giriftor bo'ladimi, yoki shod-xurramlikdan masrur bo'ladimi o'z hissiyotlarini qo'shiqqa to'kib soladi.

Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janri. Qo'shiq termini birinchi marta XI asrda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk asarida qo'shug' shaklida berilgan bo'lib, she'r, qasida deb ko'rsatilgan.

Isajon Sulton ham "Yusuf va Zulayho" hikoyasida ayol qalbini, uning mehr-u muhabbatini, ko'nglidan otilib chiqqan oh-u nolalarini qo'shiqqa- Zulayhoning ruhiy iztirobini o'g'li uchun aytgan allasiga jo qiladi. Zulayho qalbidan sizib chiqqan allasi ham ajoyib:

Shu tog'larda qor bo'lsaydim, alla,  
Bir daydi sarsor bo'lsaydim, alla,  
Izlab toparmiding meni, meni,  
Egasiz mozor bo'lsaydim, alla?

Isajon Sulton yoridan ayrilgan Yusufning boshi oqqan tomonga ketib qolib qishloqqa ko'rinmay qolish holatini xalq og'zaki ijodi qahramoni Majnunning boshiga ishq savdosi tushganida uzoqlarga bosh olib ketgan holatiga yaqinlikda berar edi, asar syujetini xalq ijodiga yaqinlashtiradi.

Badiiy so'z san'ati taraqqiy etib boruvchi estetik hodisa sifatida tabiat, jamiyat, hayot va inson ruhiy olamining turli murakkab qatlamlariga kirib boradi. Biz bilamizki, adabiyotda zamon ruhi degan tushuncha bor. U har bir zamon kishisini chetlab o'tishi mumkin emas. Hozirgi XXI asr kitobxonini Navoiy, Rumi, Gyote asarlari to'la qiziqтира oladi deb ayta olmaymiz. Ruhi poklanishni istayotgan, o'zligini tanishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan insonlarga bunday asarlarni o'qishga o'zida ehtiyoj sezadi. Umarali Normatovning bu xususda juda chiroyli bir o'xshatishi bor: "Navoiy ijodini tashbehan ulkan bir dengiz deb olsak, uning yuz qismida o'sha davr kayfiyati mavjud bo'lib, bu qatlam zamondosh o'quvchi uchun go'yo muzlab qolgan. Vahonanki, yuzadagi ana shu muz qatlami parchalanib ichkari tushilsa, ulug' shoirning barcha zamonlarga aloqador dahosi yuz ochadi",- deydi.

Isajon Sulton hikoyalarini o'qirkansiz, unga dengiz tubidagi javohirotda zamonamiz kishilarning ruhiyati orqali erisholganligini guvohi bo'lasiz. Asar voqeligi, undagi qahramonlarning taqdiri, ziddiyatli o'y-mulohazalari,





kechinmalari, shodlik va quvonchi... bilan kitobxonning xuddi shunday jihatlari o'rtasida hamohanglik bo'lishi-asarning keng o'qilishini, har bir kitobxonning qalbidan joy olinishini ta'minlovchi vositadir. Badiiy adabiyot-inson ruhini taftish etadigan, uning o'y-xayollarini o'qiy oladigan san'at turidir. Adabiyot-insonning ruhiy kechinma va iztiroblarini bir ipga chizib berishdek qudratga ega.

Badiiy adabiyot haqida gapirar ekanmiz, avvalo, Umarali Normatov ta'biri bilan aytganda: "... shaxs-insonlik darajasiga ko'tarila olgan zot"(U. Normatov " Tafakkur tadriji "164-bet.) degan fikr haqida to'xtalib o'tish joiz. Sababi badiiy adabiyotda qanday mavzuga qo'l urilmasin, unda shaxs-inson manfaati birinchi o'rinda turadi. Shaxs bu hechkimga qaram bo'lmagan, o'zining mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan zot. Unda tarki dunyo qilgan zohid tushunchasi yotmaydi. Shaxs o'zining ichki tartiboti tan olgan, tashqi olamga tatbiq etish orqali jamiyatga, insonlar hayotiga tub burilish, yangilanishlar olib kirishga intilayotgan kishidir. Shaxs o'zidagi xudbinlikni yorib chiqishni uddalay oladi va u yakka o'zi haqida o'ylashdan uyaladi, o'zgalar to'g'risida o'ylashga ehtiyoj sezadi.

Isajon Sultonning "Bibi Salima " hikoyasi qahramoni Bibi Salima huddi shunday o'ylayotgan, o'zgalar g'amini o'z g'aminging bir bo'lagi sifatida his qilayotgan qahramon. "... Qarang-a niyatni xolis qila bilish kerak ekan-da. Tovba o'shanda o'zim uchun so'raganimda-yu, bir bizgagina berganida nima bo'lardi? Qo'ni-qo'shnining ko'ziga qanday qarardik?"-, deya xitob qiladi Bibi Salima. Butun asar mazmuni mana shunday o'quvchini asar boshidayoq qahramon qalbi bilan tanishtirar ekan, umrini halol, pok yashashga sarflayotgan, peshona teri bilan mehnat qilib luqmai halolini o'ziga va farzandlari vujudiga singdirayotganda Yaratganga shukronalik hissi bilan to'lib-toshgan, bir sodda qalbli, haqiqiy musulmonchilik urf odatlari bilan ulg'aygan o'zbek ayolining o'ziga xos qalbiga ro'baro' kelamiz.

Tandirchi ishini bitirib Bibi Salimaga qarab : "Duo qiling "-,deganida: "Yo'g'e erkak kishi turganida men duo qilamanmi?"-, deb javob berishidan millatimiz ayollariga xos iffat, itoatkorlik, or-nomusni yaqqol ko'ra olamiz. Bibi Salima to'rt o'g'il farzandning onasi, bularni yedirib-ichirish tashvishi qahramonni nojo'ya o'y-xayollarni ko'ngliga olishga sabab bo'lib qolganda Allohga tavba qiladi. To'g'rilik, tejamkorlik, halollik va mehnatsevarlik kabi go'zal fazilatlar-u xususiyatlarni o'zida jamlagan qahramonimizda e'tiqod mustahkam.

Isajon Sulton Bibi Salimaning ichki dunyosini yaratar ekan uning qalbi naqadar sof va samimiyatga limmo-lim ekanligi, insonparvarlik xislatlarini naqadar





yuksak darajada egallaganligiga o'quvchining o'zini guvoh qiladi. Bunda dialogdan foydalanmaydi. Bunda qahramonning ichki dunyosini monologdan ochib bera oladi. Adib qahramonni o'z tashvisi bilan band, boshqalar taqdiriga befarq, o'z dard-u hasrati bilan yashaydigan inson sifatida tasvirlashdan qochadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, aksar hikoyalarda insonning tirikligi, hayoti va bu dunyoga kelishdan maqsadi ne ekanligini anglash inson uchun g'oyat muhim vazifa ekanligini uqtiradi. Inson o'z "meni" orqali bu dunyoning o'tkinchiligini, olamdagi barcha ajoyibotlar-u, mushkulotlarning koinot uchun arzimas bir jo'n hodisa ekanligini anglab yetishiga turtki bera oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umarali Normatov " Tafakkur tadriji".
2. Dilmurod Quronov " Adabiyot nazariyasi asoslari".
3. Omonulla Madayev " Xalq og'zaki ijodi"
4. Isajon Sulton "Genetik"

